



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- mart holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*


*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bунyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2023-yil 1-mart holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 23 507 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 21 199 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi 2,7 foizni (jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar 2,7 foiz) tashkil etdi.

**Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiylar ma’lumotlar
*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda.***




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

2023- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni

2023		675
2022		594
2021		787
2020		895
2019		678

**Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil yanvar-fevral oyida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda 3 taga kamayganligini ko'rish mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 45 taga ko'paygan, oilaviy korxonalar 30 taga kamaygan.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	117	100,0 %	Karmana t.	91	90,0 %
Zarafshon sh.	59	18,0 %	Nurota t.	31	14,8 %
G'ozg'on sh.	10	62,5 %	Tomdi t.	26	8,3 %
Konimex t.	28	54,5 %	Uchquduq t.	65	109,6 %
Qiziltepa t.	110	13,4 %	Xatirchi t.	68	28,3 %
Navbahor t.	70	4,4 %			

2023- yil 1- mart holatiga ko 'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2023-yil 1-mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davriga (22 896 ta) nisbatan 611 taga oshganligini quyidagi sohalarda korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: savdo-7 902 tadan 8 261 taga (o'sish 359 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida-2 650 tadan 2 777 taga (o'sish 127 ta).

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	5 458	103,8 %	Karmana t.	3 198	87,9 %
Zarafshon sh.	1 787	106,9 %	Nurota t.	1 414	90,8 %
G'ozg'on sh.	343	119,9 %	Tomdi t.	647	118,3 %
Konimex t.	997	113,0 %	Uchquduq t.	983	110,9 %
Qiziltepa t.	3 276	108,1 %	Xatirchi t.	2 815	101,3 %
Navbahor t.	2 589	109,5 %			

2023- yil yanvar-fevral holatiga ko‘ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2023-yil fevral oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 669 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 667 ta;
- yirik korxonalar 2 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	116	104,5 %	Karmana t.	89	89,9 %
Zarafshon sh.	59	122,9 %	Nurota t.	30	125 %
G‘ozg‘on sh.	10	66,7 %	Tomdi t.	26	113,0 %
Konimex t.	28	311,1 %	Uchquduq t.	65	224,1 %
Qiziltepa t.	108	113,7 %	Xatirchi t.	68	130,8 %
Navbahor t.	70	106,1 %			

2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

2023	21 304
2022	20 732
2021	18 501
2020	15 636
2019	9 754

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- mart holatiga 21 304 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 218,4 foizni tashkil etdi (9 754 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiyligi sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 38,8 foiz, sanoat – 16,9 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 12,9 foiz, qurilish – 7,8 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 6,5 foiz, tashish va saqlash – 3,7 foiz, axborot va aloqa – 1,3 foiz, sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 1,4 foiz, boshqa turlari – 10,7 foiz.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	4 873	104,1 %	Karmana t.	2 952	87,0 %
Zarafshon sh.	1 656	108,1 %	Nurota t.	1 232	89,1 %
G‘ozg‘on sh.	311	121,5 %	Tomdi t.	567	119,9 %
Konimex t.	868	114,7 %	Uchquduq t.	867	111,9 %
Qiziltepa t.	3 045	108,6 %	Xatirchi t.	2 522	101,4 %
Navbahor t.	2 411	110,2 %			

2023- yil yanvar-fevral holatiga ko‘ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat




Tashish va saqlash



Sog‘liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2023- yil fevral oyida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan 175 tadan 236 taga (o‘sish 61 taga), yashash va ovqatlanish – 35 tadan 55 taga (o‘sish 20 taga) ko‘paydi.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	116	104,5 %	Karmana t.	88	89,8 %
Zarafshon sh.	58	120,8 %	Nurota t.	30	125,0 %
G‘ozg‘on sh.	10	66,7 %	Tomdi t.	26	113,0 %
Konimex t.	28	311,1 %	Uchquduq t.	65	224,1 %
Qiziltepa t.	108	113,7 %	Xatirchi t.	68	130,8 %
Navbahor t.	70	106,0 %			


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumotlar

2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari G'ozg'on shahrida (121,7 foiz), Tomdi (119,9 foiz), Konimex (114,7 foiz), Uchquduq (112,0 foiz) va Navbahor (110,2 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	4 835	104,0 %	Karmana t.	2 934	86,9 %
Zarafshon sh.	1 646	108,1 %	Nurota t.	1 228	89,1 %
G'ozg'on sh.	309	121,7 %	Tomdi t.	566	119,9 %
Konimex t.	859	114,7 %	Uchquduq t.	867	112,0 %
Qiziltepa t.	3 033	108,5 %	Xatirchi t.	2 516	101,2 %
Navbahor t.	2 406	110,2 %			

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda**

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	274
Zarafshon sh.	57
G'ozg'on sh.	17
Konimex t.	277
Qiziltepa t.	364
Navbahor t.	438
Karmana t.	411
Nurota t.	330
Tomdi t.	191
Uchquduq t.	69
Xatirchi t.	349



O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Baliq ovlash va akvakultura




**O'rmonchilik va yog'och
tayyorlash**

**Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik va
bu sohalarda xizmat
ko'rsatish**

2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	798
Zarafshon sh.	359
G‘ozg‘on sh.	187
Konimex t.	129
Qiziltepa t.	432
Navbahor t.	308
Karmana t.	481
Nurota t.	207
Tomdi t.	90
Uchquduq t.	161
Xatirchi t.	456



Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So‘nggi uch yil ichida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o‘sish sur’ati 122,3 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 15,3 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 91,7 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yil ning mos davriga nisbatan o‘sish 92,2 foiz), 6,2 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o‘sish 6,1 foiz), 1,8 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (o‘sish 1,4 foiz) va 0,4 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (o‘sish 0,3 foiz) tashki etgan.

Ishlab chiqarish sanoati

3 308

223

Tog‘-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash

Suv bilan ta’minlash,
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig‘ish
va utilizatsiya qilish

64


13

Elektr, gaz, bug‘ bilan
ta’minlash va havoni
konditsiyalash

2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	494
Zarafshon sh.	157
G‘ozg‘on sh.	6
Konimex t.	41
Qiziltepa t.	252
Navbahor t.	182
Karmana t.	243
Nurota t.	99
Tomdi t.	37
Uchquduq t.	47
Xatirchi t.	94



O‘zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 54,9 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish surʼati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 101,3 foizga oshgan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 12,1 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish surʼati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 132,5 foizga oshgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 31,5 foiz ulushni va 83,8 foiz o‘sish surʼatini tashkil etdi.

155



Fuqarolik
obyektlarini qurish

590

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

907


Bino va
inshootlar qurish



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	1 897
Zarafshon sh.	528
G'ozg'on sh.	49
Konimex t.	240
Qiziltepa t.	1 393
Navbahor t.	1 125
Karmana t.	1 127
Nurota t.	314
Tomdi t.	177
Uchquduq t.	354
Xatirchi t.	1 057



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 100,2 foizi yoki 8 243 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 73,6 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 100,9 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 17,9 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 117,9 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosini va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,5 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 112,9 foizni tashkil etdi.

700

Avtomobil
va mototsikllarning
ulgurji va chakana
savdosini va ularni
ta'mirlash

1479

Avtomobil
va mototsikllar
savdosidan tashqari
ulgurji savdo


6082

Avtomobil
va mototsikllar
savdosidan tashqari
chakana savdo

2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	343
Zarafshon sh.	214
G‘ozg‘on sh.	6
Konimex t.	53
Qiziltepa t.	182
Navbahor t.	88
Karmana t.	184
Nurota t.	47
Tomdi t.	24
Uchquduq t.	88
Xatirchi t.	168



2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish sur’ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 153,7 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1-mart holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 11,4 foiz ulushini tashkil etdi;
- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 88,6 foiz ulushini tashkil etdi.

159

Yashash bo‘yicha xizmatlar

1 238


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	110
Zarafshon sh.	24
G'ozg'on sh.	2
Konimex t.	5
Qiziltepa t.	34
Navbahor t.	19
Karmana t.	38
Nurota t.	6
Tomdi t.	2
Uchquduq t.	10
Xatirchi t.	40



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 13,8 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 13,4 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 37,9 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 43,9 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 48,3 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 42,7 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	148
Zarafshon sh.	38
G'ozg'on sh.	2
Konimex t.	8
Qiziltepa t.	36
Navbahor t.	20
Karmana t.	42
Nurota t.	9
Tomdi t.	11
Uchquduq t.	15
Xatirchi t.	36



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 365 ta yoki 1,6 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

91,5 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2022-yilning mos davriga nisbatan 107,4 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,8 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 116,7 foizni tashkil etdi;


Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 4,7 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 113,3 foizni tashkil etdi;



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	223
Zarafshon sh.	57
G'ozg'on sh.	2
Konimex t.	8
Qiziltepa t.	149
Navbahor t.	55
Karmana t.	183
Nurota t.	12
Tomdi t.	9
Uchquduq t.	11
Xatirchi t.	77



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,3 foiz ulushini tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning o'sish sur'ati 106,6 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 108,4 foizni; pochta va kuryerlik yo'nalishi 111,6 foizni tashkil etdi;

havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 50,0 baravarga oshgan;




Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy

shakli bo'yicha umumiy ma'lumot

2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

**Tadbirkorlik
subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarini tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023- yil yanvar-fevral holatiga ko‘ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Mas’uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyat hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo‘sghan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shtagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatları bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	96	117,1 %	Karmana t.	67	97,1 %
Zarafshon sh.	18	90,0 %	Nurota t.	22	129,4 %
G‘ozg‘on sh.	1	33,3 %	Tomdi t.	13	108,3 %
Konimex t.	12	240,0 %	Uchquduq t.	57	196,6 %
Qiziltepa t.	101	142,3 %	Xatirchi t.	35	97,2 %
Navbahor t.	43	126,5 %			

2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan 23 507 ta korxona va tashkilotlarining 11 932 tasi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirdorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o’sish sur’atlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng yuqori ko‘rsatkich sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 119,5 foiz, axborot va aloqada – 114,5 foiz, savdoda – 111,4 foiz, yashash va ovqatlanishda – 110,3 foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	3 262	107,1 %	Karmana t.	1 686	94,5 %
Zarafshon sh.	602	109,9 %	Nurota t.	689	101,6 %
G‘ozg‘on sh.	84	125,4 %	Tomdi t.	297	119,8 %
Konimex t.	415	115,6 %	Uchquduq t.	751	114,0 %
Qiziltepa t.	2 226	113,2 %	Xatirchi t.	843	110,3 %
Navbahor t.	1 077	116,3 %			

Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

2023- yil yanvar-fevral holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.


2023- yil yanvar-fevral oyida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 15 taga, savdo 6 taga ko‘paygan.

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	10	104,5 %	Karmana t.	12	89,8 %
Zarafshon sh.	36	120,8 %	Nurota t.	5	125,0 %
G‘ozg‘on sh.	8	66,7 %	Tomdi t.	13	113,0 %
Konimex t.	16	311,1 %	Uchquduq t.	5	224,1 %
Qiziltepa t.	3	113,7 %	Xatirchi t.	26	130,8 %
Navbahor t.	20	106,0 %			


2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99,8 foizga ko'paydi.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan ko'payishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (113,6 foiz), savdo (99,4 foiz), tashish va saqlash sohalari (115,1 foiz), shahar va tumanlar kesimida esa – Konimex (140,6 foiz), Tomdi (126,1 foiz), G'azg'on (125,8 foiz) va Zarafshon (106,7 foiz) shahar va tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	826	96,5 %	Karmana t.	502	70,8 %
Zarafshon sh.	891	106,7 %	Nurota t.	305	73,3 %
G'ozg'on sh.	200	125,8 %	Tomdi t.	208	126,1 %
Konimex t.	246	140,6 %	Uchquduq t.	78	96,3 %
Qiziltepa t.	464	96,9 %	Xatirchi t.	1068	105,0 %
Navbahor t.	640	117,0 %			

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar


2023- yil yanvar-fevral holatiga ko‘ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Oilaviy korxona – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiyl mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	10	71,4 %	Karmana t.	10	50,0 %
Zarafshon sh.	5	166,7 %	Nurota t.	2	40,0 %
G‘ozg‘on sh.	1	100,0 %	Tomdi t.	-	-
Konimex t.	-	-	Uchquduq t.	3	-
Qiziltepa t.	4	40,0 %	Xatirchi t.	7	140,0 %
Navbahor t.	7	36,8 %			


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar

2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- mart holatiga ko'ra 2022- yilning mos davriga nisbatan 284 taga kamaygan.

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	724	100,1 %	Karmana t.	748	85,2 %
Zarafshon sh.	157	108,3 %	Nurota t.	212	80,3 %
G'ozg'on sh.	25	89,3 %	Tomdi t.	54	108,0 %
Konimex t.	189	92,2 %	Uchquduq t.	32	123,1 %
Qiziltepa t.	342	100,0 %	Xatirchi t.	573	86,8 %
Navbahor t.	680	97,3 %			

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona
va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**
2023- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.


Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rshimiz mumkin.

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	3	37,5 %	Karmana t.	3	37,5 %
Zarafshon sh.	-	-	Nurota t.	-	-
G'ozg'on sh.	-	-	Tomdi t.	-	-
Konimex t.	-	-	Uchquduq t.	-	-
Qiziltepa t.	-	-	Xatirchi t.	2	25,0 %
Navbahor t.	-	-			


2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2.0 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 34 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu respublikada xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 13,9 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Xitoy (ulushi 13,9 foiz), Eron Islom (7,4 foiz), Turkiya (ulushi 4,1 foiz), Qozog'iston (ulushi 2,9 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 2,5 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	85	34,8 %	Karmana t.	61	25,0 %
Zarafshon sh.	16	6,6 %	Nurota t.	14	5,7 %
G'ozg'on sh.	3	1,2 %	Tomdi t.	8	3,3 %
Konimex t.	10	4,1 %	Uchquduq t.	7	2,9 %
Qiziltepa t.	17	7,0 %	Xatirchi t.	14	5,7 %
Navbahor t.	9	3,7 %			

2023- yil yanvar-fevral holatiga ko‘ra, birlikda



Rassiya Federatsiyasi

2



Avstraliya

2



Gonkong

1



Hindiston Respublikasi

1



Birlashgan Arab Amirligi

1



Eron Islom Respublikasi

1

O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo‘yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o‘sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O‘zbekiston hukumati o‘z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko‘paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda



O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 140 tasi qo‘shma korxonalar, 104 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo‘shma korxonalar

27 Navoiy shahri **58**

7 Zarafshon shahri **9**

1 G‘ozg‘on shahri **2**

5 Konimex tumani **5**

8 Qiziltepa tumani **9**

3 Navbahor tumani **6**

32 Karmana tumani **29**

4 Nurota tumani **10**

2 Tomdi tumani **6**

6 Uchquduq tumani **1**

9 Xatirchi tumani **5**

2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda



So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnomalar tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.



Statistik registrlarni yuritish
va tizimli xizmat
ko‘rsatish bo‘limi
Tel.:79.223.42.67